



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2678

www.ijournal.uz

FUTURE ECONOMY: HOW WILL ARTIFICIAL INTELLIGENCE AFFECT JOBS?

Mushtariy Shaxobiddinova¹

University of World Economy and Diplomacy

DOI: 10.5281/zenodo.15210447

Article History	Abstract
Received: 10.03.2025	Artificial intelligence (AI) is having a major impact on jobs, and it is penetrating many industries. They range from cybersecurity to the service industry. This article examines how artificial intelligence (AI) will affect jobs in the future, highlighting its benefits and challenges in many areas.
Accepted: 14.04.2025	

Keywords: Artificial intelligence, unemployment, economy, jobs, technology.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International [CC BY 4.0] license [<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>]

¹ University of World Economy and Diplomacy, Tashkent, Uzbekistan (mushtarishaxobidinova@gmail.com)

KELAJAK IQTISODIYOTI: SUN'iy INTELLEKT ISH O'RINLARIGA QANDAY TA'SIR QILADI?

KALIT SO'ZLAR/

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Sun'iy intelekt, ishsizlik, iqtisod, ish o'rirlari, texnologiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Sun'iy intelekt (SI)ning ish o'rinlariga ta'siri katta bo`lib, u juda ko`p sohalarga kirib bormoqda. Ular kiberxavfsizlikdan tortib xizmat ko`rsatish sohasigacha kirib borgan. Ushbu maqola sun'iy intelekt (SI) kelajakda ish o'rinlariga qanday ta'sir qilishi haqida o`rganadi, va uning ko`plab sohalardagi avfzalliklari va muammolarini ta'kidlaydi.

Kirish.

Sun'iy intellekt bugungi kunda inson qilishi mumkin bo`lgan ko`p vazifalarni bajara olyapti va bu odamlarning ish o'rinlarini yo'qotishlariga ham sabab bo`lishi mumkin. Masalan, taksilar, yuk mashinalari haydovchisiz ham boshqarilishi, kassalarda hisobchilar bo`lmasligi, jarrohlik operatsiyalarini ham odam emas,balki robotlar insonlardan ham yaxshiroq uddalamoqda. Natijada esa, albatta, kimdir ishsiz qolishi ehtimoli bor.

Metodologiya.

Ushbu maqolada sun'iy intellektning kelajakka ta'sirini o'rganish uchun ilmiytadqiqot metodlariga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida sun'iy intellektning hozirgi rivojlanish darajasi va kelajakdagi ta'sirini baholash uchun turli manbalardan foydalanildi. Jumladan, ilmiy maqolalar, tadqiqot hisobotlari, xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari, texnologik kompaniyalar rejalarini tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida mavjud dalillarga asoslangan tahliliy yondashuv qo'llanilib, sun'iy intellektning turli sohalarga ta'siri baholandi.

Biroq, tadqiqot muayyan cheklolarga ham ega. Sun'iy intellekt sohasi juda tez rivojlanib borayotganligi sababli, maqolada keltirilgan ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Shuningdek, olingan natijalar mavjud ma'lumotlarga asoslangan bo`lib, kelajakdagi uzoq muddatli ta'sirni aniq tasvirlash imkoniyati cheklangan. Shunga qaramay, ushbu metodologiya sun'iy intellektning kelajakka ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

Adabyotlar sharhi.

Sun'iy intellektning ish o'rinlariga ta'siri mavzusida ko`plab olimlar ish olib borgan. Ulardan biri Carl Benedikt Frey va Michael Osborne bo`lib, 2013- yilda e'lon qilgan "The future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation?" nomli tadqiqoti hisoblanadi. Ularning tahliliga ko`ra, AQShdagisi ish o'rinalining 47%ni xavfi ostida. Xususan, oddiy va takrorlanuvchi ishlar yo`qolib ketish xavfiga ega bo`lsa, ijodiy va analitik tafakkur talab qiladigan kasblar xavfsizroq hisoblanadi.

Yana bir muhim tadqiqotchilar **Daron Acemoglu va Pascual Restrepo** bo`lib, ular 2017-yilda "Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets" tadqiqotini e'lon qilishgan.

Ularning natijalariga ko'ra, har bir yangi robot o'rtacha 3.3 nafar odamni ishsiz qoldirishi mumkin. Ayniqsa, kam maosh oladigan ishchilar ko'proq zarar ko'rishi mumkin. Shuningdek, texnologiyalar yangi ish o'rnlari ham yaratishi mumkin, lekin ular yo'qolgan ish joylarini to'liq qoplamataydi.

Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee esa texnologik inqilob natijasida yangi iqtisodiy davr kelishini ta'kidlab o'tgan. Ularning "The Second Machine Age" va "Machine, Platform, Crowd" kitoblarida sun'iy intellekt ba'zi kasblarni yo'q qilsa ham, yangi sohalarni yaratishi aytilgan. Uning tadqiqotiga ko'ra, texnologik rivojlanish noto'g'ri boshqarilsa, ishsizlik darajasi oshib ketishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar bu muammoga moslashsa ham, rivojlanayotgan mamlakatlar ishsizlik muammosiga duch kelishi ehtimoli yuqori ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Asosiy qism.

Jahon iqtisodiy forumining kelajak ish o'rnlari haqidagi hisobotiga ko'ra², keyingi besh yilda hozir mavjud ish o'rnlarining 23 foizi o'zgarib ketadi: 69 mln yangi ish o'rni yaratilishi, 83 mln ish o'rni esa butunlay yo'qolib ketishi kutilyapti. Bu global miqyosda ish o'rnlarining 14 mlni, ya'ni 2 foizi yo'q bo'lib ketishi mumkinligini anglatadi. Masalan, sun'iy intellekt namunasi bo'lgan ChatGPT AQShda 4,8 mln ish o'rnni egallashi taxmin qilinyapti³.

Yo'qolib ketish xavfidagi kasblar: ChatGPT va shunga o'xhash sun'iy intellekt sababli quyidagi kasblar to'liq yoki qisman yo'qolib ketish xavfida⁴: texnik vakansiyalar (dasturchilar, dasturiy ta'minot muhandislari, ma'lumotlar tahlilchilari); ommaviy axborot vositalaridagi ish o'rnlari (bosh direktor, muharrirlar, jurnalistlar); marketologlar, o'qituvchilar, treyderlar, grafik dizaynerlar, buxgalterlar.

Lekin sun'iy intellekt yomon va qo'rqish kerak bo'lgan narsa emas. Goldman Sachs xalqaro banki tahliliga ko'ra⁵, sun'iy intellekt sababli 300mln ish o'rni qisqarishi yoki yo'q bo'lib ketishi mumkin. Ish o'rnlari qisqarsa-da, ish tizimlarida avtomatlashtirish kuchayishi innovatsiyalarga sabab bo'ladi. Kompaniyalar sun'iy intellekt sabab pullarini tejaydi va tejalgan pullarini bizneslarini rivojlantirishga sarflaydi. Oqibatda, global miqyosda YAIM 7 foizga oshishi mumkin. Sun'iy intellekt rivojlanib borishi xuddi oldingi davrdagi texnologiyalar va kompyuterlar rivojlangan davr bilan solishtirilmoqda. Dunyo og'ir va katta kompyuterlardan zamonaviy texnologiyalarga o'tdi.

Xuddi shunday, sun'iy intellekt ham dunyonи o'zgartiradigan sur'atda rivojlanmoqda. Buning ta'sirida qaysidir kasblar yo'qolib yangilari paydo bo'ladi. Ishchilar esa doimiy ravishda o'z ustilarida ishlashlariga to'g'ri keladi. Tadqiqotlarga ko'ra, bugungi ishchilarning 60 foizi 1940 yillarda mavjud bo'lмаган kasblarni egallashgan. 1980-

² The Growth Summit: Jobs and Opportunity for All

³ <https://www.foxbusiness.com/technology/chatgpt-ai-lists-jobs-it-can-do-better-humans-millions-could-be-put-out-work>

⁴ <https://kun.uz/news/2023/04/11/chatgpt-tufayli-yoqolishi-mumkin-bolgan-10-ta-kasb-sanab-otildi>

⁵ <https://www.forbes.com/sites/jackkelly/2023/03/31/goldman-sachs-predicts-300-million-jobs-will-be-lost-or-degraded-by-artificial-intelligence/?sh=6b34696782b4>

yildan beri texnologik ozgarishlar yangi ish o`rinlari yaratishdan ko`ra, ko`proq mavjud ish o`rinlarini yo`q qilganini ta`kidlo`vchi⁶ tadqiqotlar mavjud.

Agar sun'iy intellekt taraqqiyoti ham oldingi texnologiyalar rivojlanishi bilan bir xil oqimda kechsa, uning rivojlanishi yaqin kelajakda ish o`rinlari qisqarishiga sabab bo`lishi mumkin. Resolution Foundation tahlil markazi bosh ijrochi direktori Torsten Bellga ko`ra, hozircha sun'iy intellektning uzoq muddatda ish o`rinlariga ko`rsatadigan ta'siri noaniq.

Xulosa

Sun'iy intellekt mehnat bozorini tezda o'zgartirib, ilgari odamlar tomonidan bajarilgan ko'plab vazifalarni avtomatlashtirmoqda. Sun'iy intelekt samaradorlik va innovatsiyalarni kuchaytirsa-da, ish joyini almashtirish, ayniqsa takrorlanadigan va texnik rollarda tashvish tug'diradi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, millionlab ish o`rinlari xavf ostida bo`lishi mumkin, ammo sun'iy intelekt ham o'tgan texnologik inqiloblarga o'xshash yangi ish imkoniyatlarini yaratish imkoniyatiga ega. Qiyinchilik ishchi kuchining uzluksiz o'rganish va mahoratni rivojlantirish orqali moslashishini ta'minlashdan iborat. Sun'iy intelekt rivojlanishda davom etar ekan, uning bandlikka uzoq muddatli ta'siri noaniq bo'lib qolmoqda, ammo faol siyosat va strategik ishchi kuchini rejalashtirish salbiy oqibatlarni yumshatish va uning iqtisodiy foydasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Frey, C.B. va Osborne, M.A. (2017) 'The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation?', Technological Forecasting and Social Change, 114, betlar 254-280. DOI: 10.1016/j.techfore.2016.08.019. (<https://doi.org/10.1016/j.techfore.2016.08.019>)
2. Acemoglu, D. va Restrepo, P. (2020) 'Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets', Journal of Political Economy, 128(6), betlar 2188-2244. DOI: 10.1086/705716. (<https://doi.org/10.1086/705716>)
3. Brynjolfsson, E. va McAfee, A. (2014) The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. Nyu-York: W.W. Norton & Company.
4. Brynjolfsson, E. va McAfee, A. (2017) Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. Nyu-York: W.W. Norton & Company.
5. Goldman Sachs (2023) 'AI and the Future of Work: Will Artificial Intelligence Lead to Job Loss?', Goldman Sachs Research. Mavjud: <https://www.goldmansachs.com/insights>.
6. Resolution Foundation, Bell, T. (2023) 'The Long-Term Impact of AI on Employment', Resolution Foundation Research Report. Mavjud: <https://www.resolutionfoundation.org> (<https://www.resolutionfoundation.org/>)

⁶ <https://www.bbc.com/news/technology-65102150>